RAQAMLI KONTENT VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ESTETIK DIDINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Il’yasova Dilshoda Akmal qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23512791

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli kontent vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik didini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Raqamli texnologiyalar, multimedia materiallari, elektron kitoblar va animatsiyalardan foydalanishning o‘quvchilarda estetik idrok, badiiy tafakkur hamda go‘zallikni anglash qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *raqamli kontent, estetik did, estetik tarbiya, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, multimedia, estetik idrok, badiiy tafakkur, raqamli ta’lim.*
Аннотация: *в статье рассматриваются педагогические возможности воспитания эстетического вкуса учащихся начальных классов средствами цифрового контента. Анализируется значение использования цифровых технологий, мультимедийных материалов, электронных книг и анимации в развитии эстетического восприятия, художественного мышления и способности понимать красоту у учащихся.*
Ключевые слова: *цифровой контент, эстетический вкус, эстетическое воспитание, учащиеся начальных классов, мультимедиа, эстетическое восприятие, художественное мышление, цифровое образование.*
Abstract: *this article explores the pedagogical potential of using digital content to foster aesthetic taste in primary school pupils. It analyzes the importance of digital technologies, multimedia materials, electronic books, and animations in developing pupils’ aesthetic perception, artistic thinking, and ability to appreciate beauty.*
Keywords: *digital content, aesthetic taste, aesthetic education, primary school pupils, multimedia, aesthetic perception, artistic thinking, digital education.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim mazmunini boyitish, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish hamda ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhitdan samarali foydalanish yosh avlodning ma’naviy-axloqiy va estetik tarbiyasini takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Estetik tarbiya shaxsning go‘zallikni his etishi, anglab yetishi, baholashi va unga nisbatan ongli munosabat bildirishini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Boshlang‘ich sinf davri o‘quvchilarning atrof-muhitni idrok etishi, badiiy obrazlarni tushunishi, ranglar uyg‘unligi, shakl, tovush va tasvirlarga munosabatining shakllanishida muhim bosqich sanaladi. Shu sababli mazkur davrda estetik tarbiyani samarali tashkil etish kelgusida o‘quvchilarning ma’naviy dunyosi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

An’anaviy ta’lim vositalari bilan bir qatorda raqamli kontentdan foydalanish estetik tarbiya jarayonini yanada mazmunli va ko‘rgazmali tashkil etish imkonini

beradi. Elektron kitoblar, animatsiyalar, ta’limiy videolar, raqamli rasmlar va interaktiv materiallar orqali o‘quvchilar san’at, tabiat, adabiyot hamda milliy madaniyat namunalarini turli shakllarda o‘rganishlari mumkin. Raqamli kontentning estetik tarbiyadagi imkoniyatlari, avvalo, uning axborotni vizual, audio va interaktiv shakllarda taqdim etish xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, animatsion hikoyalar orqali adabiy obrazlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, elektron kitoblar yordamida badiiy tasvirlarni kuzatish hamda raqamli san’at namunalari orqali ranglar uyg‘unligini o‘rganish mumkin.

Shu bilan birga, raqamli kontentning mavjudligi o‘z-o‘zidan estetik didning rivojlanishini kafolatlamaydi. Uning samaradorligi tanlangan materiallarning mazmuni, pedagogik maqsadga muvofiqligi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va o‘qituvchining metodik yondashuviga bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik tarbiyani shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Mazkur yosh davrida bolalar borliqni asosan hissiy-obrazli tarzda qabul qiladi, bu esa estetik ta’sirlarning samaradorligini oshiradi. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida idrok, tasavvur va hissiyot faol rivojlanish bosqichida bo‘ladi. Ular ranglar, tovushlar, shakllar va obrazlarga nisbatan yuqori sezgirlikka ega. Aynan shu sezgirlik estetik tarbiya uchun qulay zamin yaratadi. Estetik faoliyatlar —rasm chizish, musiqa tinglash, badiiy matnlarni o‘qish – o‘quvchilarning nafaqat tasavvurini, balki ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu faoliyatlar diqqatni jamlash, kuzatuvchanlik va emotsional barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bolalar dunyosiga kirib borish mumkin bo‘lgan eng samarali vositalardan biri bu ularning yoshiga mos keladigan adabiyotdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun, qalbini hayrat va rang-barang tuyg‘ular bilan to‘ldiradigan bolalar adabiyoti nafaqat bilim manbai, balki ularning hissiy va estetik dunyosini rivojlantirishda juda muhim ahamiyatga ega. Bu yoshdagi bolalar hali butunlay qaror topmagan estetik didni his qilib, go‘zallikni qadrlashga o‘rganadilar. Shu bois, bolalar adabiyoti orqali estetik didni tarbiyalash jarayoni nafaqat ularning badiiy dunyoqarashini kengaytiradi, balki hissiy yetuklikka ham ko‘maklashadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, bolalarning estetik didi ularning hissiy intellektining bir qismi bo‘lib, uning shakllanishi bolalar adabiyoti orqali amalga oshadi (Vygotskiy, 1978). Chunki adabiy matnlar orqali bolalar o‘zlarida yangi hislarni kashf etadilar, bu esa ularning ichki dunyosini boyitadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ayniqsa, o‘zgacha dunyoqarashni qabul qilishga tayyor, ular uchun estetik didning shakllanishi ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Hikoyalar va ertaklar bolalarda empatiya, tafakkur va hissiyotlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Estetik didni shakllantirish jarayoni muntazam, izchil va o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bunda bolalar adabiyoti namunalarini tanlash, ularni o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda tahlil qilish, interfaol va ijodiy topshiriqlardan foydalanish muhim pedagogik shartlardan hisoblanadi. Kontentlar o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan ma’lumot va bilim beradigan manbalar mazmuni, ya’ni darslik, badiiy kitob, matn, audio va videomatnlar majmuida ifodalanadi. Ko‘rish orqali qabul qilinadigan, vizual shakldagi kontent turiga surat, rasm, slayd, diagramma, rasmli jadval kiradi. Eshitish orqali qabul qilinadigan, audiokontent – qo‘shiq, audio adabiyotlar, ovozli dars mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. Milliy kontentlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsning har tomonlama kamol topishida beqiyos pedagogik manba vazifasini bajaradi. Milliy ertaklar, hikoyalar, maqollar, doston va rivoyatlar o‘quvchilarda quyidagi rivojlanish yo‘nalishlarini ta’minlaydi:

kognitiv rivojlanish – so‘z boyligini kengaytiradi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish qobiliyatini mustahkamlaydi;

ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish – guruhiy bahs-munozaralarda qatnashish, o‘z fikrini asosli ifodalash malakasini kuchaytiradi;

axloqiy-ma’naviy rivojlanish – milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik va mehr-oqibat tuyg‘usini mustahkamlaydi;

ijodiy rivojlanish – ertak va hikoyalar asosida yangi g‘oyalar ishlab chiqish, tasavvurni kengaytirish imkonini beradi.

O‘quv jarayonida amaliyotga qo‘llaniladigan ma’lumot va bilim beradigan manba mazmuni darslik, badiiy kitob, matn, audio va videomatnlar majmui kontent deb ataladi. Axborot beruvchi badiiy va ilmiy asar mutolaasi kitobxonlik deyiladi. Kitob mutolaasi orqali og‘zaki va yozma nutqning ravonligi, savodxonlik darajasini oshirish, diqqat va xotirani yaxshilash, asar sujeti va qahramonlar xatti-harakatidan xulosa chiqarish, emotsional-hissiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantirish vizual tafakkurni shakllantirish imkonini berib, o‘quvchi mutolaa orqali yangi bilim, axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish malakasini egallaydi. Mutolaa mashg‘ulotlarini o‘quvchining yoshiga mos tarzda tashkil etishni talab etadi. Matnlarning janr va turlarini farqlay olish, asar muallifi, mavzusi va qahramonlari haqida bilimga ega bo‘lish, milliy qahramonlar obrazidagi badiiy asarlar va xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida o‘qish tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar matnini silence – ovoz chiqarmasdan, shuningdek, baland ovozda o‘qish, matnning asosiy ma’nosini tushunish, matn yuzasidan tuzilgan savollarga javob berish, matnni savol va rasmlarga asoslanib qayta hikoya qilish ong ostida aznaliz va sintez jarayonini faollashtiradi. Mavzu va matnning asosiy g‘oyasini aniqlash, muallif, asar mavzusi

va qahramonlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish, o‘qigan matniga o‘z munosabatini bildira olish imkoniyatini vujudga keladi.

Jamiyatga yangi kirib kelgan “kontent” atamasi lotin tilidan kirib kelgan bo‘lib jamlash, to‘plash, umumlashtirish ma’nosini bildiradi. Dars mashg‘ulotlariga qo‘llash mumkin bo‘lgan resurslar jamlanmasi ham mazkur atama bilan qo‘llaniladi. Pedagogik nuqtayi nazaridan “kontent” o‘quvchilarga havola etiladigan bilim va ko‘nikma majmuiga nisbatan qo‘llaniladi. Texnologiyalar vositasidagi ta’limda elektron ta’lim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. AKT vositalari, e-booklar va platformadagi o‘quv materiallarini o‘z tarkibiga oladi.

Dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan kontent quyidagi tartibda tasniflanadi: Ko‘z bilan ko‘rish orqali qabul qilinadigan – vizual shakldagi kontent qismlariga surat, rasm, slayd, diagramma, rasmli jadval kiradi. Eshitish orqali qabul qilinadigan, ovozli kontent: qo‘shiq, audio adabiyotlar, ovozli dars mashg‘ulotlari (til o‘rgatish mashg‘ulotlari). Videokontent – film, kinojurnallar, multfilm, vediodars mashg‘ulotlari. Interfol kontent so‘rovnoma, viktorina tarzidagi kontentlarni o‘z ichiga oladi. Estetik did inson psixikasining mukammal, yanada nozik va murakkab qismidir, u shaxsning san’at asarlarini, tabiatdagi go‘zallikni, atrof-muhitdagi jozibadorliklarni anglash va qadriga yetish qobiliyatidir. Estetik did insonning hissiyotlar, tasavvurlar va tafakkurining sintezidan hosil bo‘lib, go‘zallikni idrok etish darajasini belgilaydi. Psixolog olimlar bu tushunchani shaxsning ijodiy tafakkurining, hissiy sezgirligining va madaniy savodxonligining birligi sifatida ko‘rishadi.

Raqamli kontentdan samarali foydalanish uchun bir qator pedagogik shartlarga rioya qilish muhim. Avvalo, kontent o‘quvchilarning yoshiga, qiziqishlariga va ta’lim maqsadlariga mos bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, raqamli materiallar o‘qituvchining tushuntirishi, savol-javob, suhbat, mustaqil kuzatish va ijodiy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Uchinchidan, o‘quvchilarni raqamli materiallarni shunchaki tomosha qilish bilan cheklamasdan, ularni tahlil qilish, taqqoslash va estetik baholashga yo‘naltirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. *Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms?* Paris: UNESCO, 2023.
2. Dewey, J. *Art as Experience.* New York: Minton, Balch & Company, 1934.
3. Eisner, E. W. *The Arts and the Creation of Mind.* New Haven: Yale University Press, 2002.
4. Mayer, R. E. *Multimedia Learning.* 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
5. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.